

YANGI O'ZBEKISTONDA O'ZBEK ADABIY TILINI RIVOJLANTIRISH TENDENSIYALARI: MUAMMOLAR, YECHIMLAR VA TAVSIYALAR

Sativoldiyeva Dildora Sadridin qizi

NamDPI Filologiya kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

Tursunboyeva Ozoda Xayitali qizi

NamDPI, 1-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17983574>

Annotatsiya. Maqolada Yangi O'zbekistonda o'zbek tilining rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolari, ularni bartaraf etish bo'yicha davlat siyosati, lingvistik islohotlar, xalqaro maydondagi o'zbek tilining mavqei va istiqbollari ilmiy tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada rasmiy qonunchilikdagi o'zgarishlar, amaliy faoliyat va milliy tilning ijtimoiy hayotdagi o'rni haqida xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: o'zbek tili, til islohoti, davlat tili, etnolingvistika, milliy identitet, til siyosati, Yangi O'zbekiston.

O'zbek adabiy tili xalqning ma'naviy-ruhiy hayotini, milliy tafakkurini, tarixiy xotirasini, badiiy estetik didini ifoda etuvchi eng muhim ijtimoiy hodisalardan biridir. Til jamiyat taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lib, uning taraqqiyot darajasi bevosita millatning ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy yuksalishiga ta'sir qiladi.

XX asr boshlaridan hozirgi davrgacha shakllanib kelayotgan "Yangi o'zbek adabiyoti" davri o'zbek tilining ilmiy-amaliy taraqqiyotidagi yangi bosqich sifatida tavsiflanadi. Mustaqillik yillarida milliy tilning maqomi qonuniy asosda mustahkamlandi, xususan: O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 21-dekabrda yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat tili haqida"gi Qonuni, mazkur hujjatdagi vazifalarni amalga oshirish bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-sentyabrdagi 311-son qarori talablari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni va 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son "Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktyabrdagi "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqei tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi", 2020-yil 20-oktyabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmon va qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar o'zbek tilining davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan va xalqaro munosabatlarda qo'llanish doirasini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur ilmiy maqola quyidagi metodlar asosida tayyorlandi:

- Tarixiy-lisoniy metod – o'zbek adabiy tilining davriy taraqqiyoti tahlil qilindi;
- Etnolingvistik yondashuv – xalq shevalari va lahjalarning adabiy tilga ta'siri o'rganildi;
- Qonunchilik tahlili – so'nggi yillardagi til siyosati hujjatlari tahlil qilindi;

- Deskriptiv metod – muammolar va yechimlar izchil tasvirlandi;
- Taqqoslash – yangi davr va sovet davridagi til siyosati solishtirildi.

Tahlil va natijalar

1. O'zbek adabiy tilining tarixiy ildizlari va taraqqiyoti

O'zbek adabiy tilining shakllanishi qadimgi turkiy til davridan boshlab bir necha bosqichlarni bosib o'tgan:

1. Eng qadimgi turkiy til (VII asrgacha)
2. Qadimgi turkiy til (VII–XI asrlar)
3. Eski turkiy til (XI–XIII asrlar)
4. Eski o'zbek adabiy tili (XIV–XIX asrlar)
5. Yangi o'zbek adabiy tili (XIX–XX asrlar boshi)[1,75]

Bugungi o'zbek adabiy tili aynan ushbu davriy bosqichlarning mustahkam davomidir.

2. Yangi O'zbekiston davrida til siyosati va til rivoji

2.1. Til siyosatidagi islohotlar

Yangi O'zbekiston davrida quyidagi o'zgarishlar amalga oshirildi:

- Geografik obyektlarning 250 mingdan ortiq nomi davlat tiliga moslashtirildi;
- So'nggi ikki yilda 2600 dan ortiq obyekt qayta nomlandi (tog'lar, daryolar, stansiyalar va boshqalar)[2,3];
- Rasmiy hujjat yuritishning yagona milliy standartlari ishlab chiqildi;
- Xorijda o'zbek tilini o'qitish bo'yicha dasturlar yaratildi — xususan, 2025-yilda Oksford universitetida o'zbek tili bo'limi ochildi.

2.2. Tilning xalqaro maydondagi mavqei

O'zbek tili:

- BMTning bir nechta sessiyalarida qo'llanildi,
- dunyoning 10 dan ortiq davlatida o'quv kurslari ochildi,
- onlayn platformalarda (Duolingo, Memrise) o'rgatilmoqda.

Bu jarayon milliy tilning global maydondagi obro'sini oshirmoqda.

Hozirgi davrdagi asosiy til muammolari quyidagilardan iborat:

1. Orfografiya va imlo masalalarida barqarorlik yetishmasligi;
2. Chet tillaridan keraksiz o'zlashmalar oqimi;
3. Rasmiy idoralar nutqida adabiy til me'yorlarining buzilishi;
4. Media tili va ijtimoiy tarmoqlarda tildagi buzilishlar;
5. Kompyuter lingvistikasida o'zbek tilining yetarli darajada qo'llanilmasligi.

4. Yechimlar va takliflar

Quyidagi yechimlar zamonaviy til siyosati uchun muhim:

4.1. Normativ-huquqiy asosni kuchaytirish

- “Davlat tili to'g'risida”gi qonun ijrosini mustahkamlash;
- tilni tartibga soluvchi yagona orfografiya qoidasini ishlab chiqish.

4.2. O'quv-ta'lim tizimini takomillashtirish

- maktablardan boshlab adabiy til darslarini interaktiv metodlar asosida o'qitish;
- xorijda o'zbek tili bo'yicha malaka oshirish markazlarini kengaytirish.

4.3. Media va internet tilini sog'lomlashtirish

- bloggerlar va jurnalistlar uchun tilda savodxonlik bo'yicha treninglar;
- rasmiy media uchun tahririy standartlarni joriy qilish.

4.4. Raqamli lingvistika rivoji

- sun'iy intellekt asosida o'zbekcha matn korpusi yaratish;
- avtomatik tarjima, imlo tekshirish tizimlarining yangi avlodini ishlab chiqish.

Xulosa

Yangi O'zbekiston davrida o'zbek adabiy tilining rivojlanishi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tilning xalqaro nufuzini oshirish, ichki til me'yorlarini barqarorlashtirish, ilmiy terminologiyani takomillashtirish, raqamli lingvistika sohasida yangi loyihalarning amalga oshirilishi o'zbek adabiy tilining global darajadagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Til – millatning ruhi, uning tarixiy o'zligini saqlovchi bosh boyligidir. Shu bois, o'zbek tilining taraqqiyotiga hissa qo'shish har bir fuqaroning ma'naviy burchi hisoblanadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Abdurahmonov G., Shukurov Sh. O'zbek tilining tarixiy grammatikasi. — Toshkent: O'qituvchi, 1973.
2. "Gazeta.uz" — 2008–2025-yillarda e'lon qilingan rasmiy ma'lumotlar.
3. O'zbekiston Prezidenti 21-oktabr — O'zbek tili bayrami munosabati bilan qilgan tabrigi.